Volume 3, Issue 1,2024

# NUTQIY KOMPETENSIYALARNI RO`YOBGA CHIQARISH: BOSHLANG`ICH SINFLAR METODOLOGIYASI

*Abdullayeva Lobar Bazarboyevna*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda nutq o‘stirish, nutqiy kompetensiyalar bilan bog‘liq muhim faktorlar, xususan, boshlang‘ich ta’lim ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini takomillashtirishning lingvistik, pedagogik xususiyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Yozma nutq, kommunikativ kompetensiya, to‘g‘ri talaffuz, so‘z boyligi, savodxonlik, matn ustida ishlash.

## KIRISH

O‘quvchilarning nutqini o‘stirish ishi ularning birinchi sinfga borishidan boshlanadi. Nutqni shakllantirish va rivojlantirish uchun grammatikaning hamma bo‘limlarida ishlash natijasida nutqiy ko‘nikmalar shakllana boradi. Nutqiy ko‘nikmalarga nutqning ixcham, sodda, ravon bo‘lishi kiradi: o‘quvchilarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish ishlari birinchi darajali vazifa qilib qo‘yiladi.

Nutq inson tafakkuri, ong mahsuli bo‘lib, u muloqot-munosabatni yo‘lga qo‘yuvchi asosiy vosita, inson tafakkuri va dunyoqarashining bevosita ifodasi sanaladi. Shu jihatdan nutqiy rivojlanish insonning shaxs sifatidagi rivojlanishini to‘laligicha aks ettiradi. Inson ma’naviyatining shaklanishi va takomili ham butun borligicha uning nutqida namoyon bo‘ladi. Til (nutq)ning, birinchidan, insondagi aqliy qobiliyatlarni o‘stirishdagi, ikkinchi tomondan esa, uning bevosita hissiy-tarbiyaviy, ma’naviy jihatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatishi fanda e’tirof etilgan haqiqatlar silsilasiga kiradi. Biroq ularni o‘zaro zid qo‘yish to‘g‘ri emas. Tildagi ijtimoiy, badiiy- estetik funksiyalar bir-birini inkor etish hisobiga emas, balki o‘zaro hamkorlik va yaxlitlik evazigagina o‘z zimasiga yuklangan vazifalarni amalga oshiradi.

## ASOSIY QISM

Inson nutqi u tug‘ilishi bilan shakllanib, takomillashib borsa-da, uni rivojlantirish ehtiyoji mavjud. Bu bevosita ta’lim jarayonida amalga oshiriladi. Xususan, ona tili ta’limi nutq o‘stirish bilan shug‘ullanuvchi maxsus fan sifatida bu borada salmoqli o‘rin tutadi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish ularga o‘z xalqi adabiy tilini o‘rgatish demakdir.Ularni adabiy tili talaffuz me’yorlarida so‘zlashga odatlantira borish nutq o‘stirishning asosiy maqsadi sanaladi.

O‘quvchilar so‘z boyligini oshira borish, adabiy til me’yorlarini egallatish, o‘quvchi uchun yangi bo‘lgan har bir so‘zning talaffuzini, fikrni og‘zaki va yozma holda tinglovchi (o‘zga)ga yetkaza olish malakalarini hosil qilish ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi sanaladi.

Zamonaviy ta’limda Ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi: “o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat”, deb belgilangan. Ushbu maqsadga erishish o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqlikda amalga oshiriladi.

Ma’lumki, nutqiy kompetensiya o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqqa xos bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olish layoqati sanaladi.

Professor B.To‘xliev qayd etishicha: “nutqiy kompetensiya tushunchasi ostida tegishli tildagi nutqni amaliy jihatdan erkin egallash, dialog, shuningdek, monolog shaklidagi nutq jarayonida to‘g‘ri, tez, jonli gapira olish, eshitilayotgan va o‘qilayotgan nutqni to‘la tushunish, har qanday funksional uslubdagi nutq namunalarini tushuna olish malakalari tasavvur etiladi.

O‘quvchilarda ushbu kompetensiyalarni takomillashtirish bugungi zamonaviy pedagogika, ona tili o‘qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanalib, bu o‘z navbatida,

o‘quvchilardagi tayanch kommunikativ kompetensiya (muloqotga kirishish layoqati)ni rivojlantirishda katta aamiyat kasb etadi. Nutqning ifodaliligi va ta’sirchanligini (so‘z urg‘usi va mantiqiy urg‘u, pauza va ovoz tembri, nutq sur’ati, tovush, bo‘g‘in, so‘z, gaplarni ravon aytish, gap mazmuniga ko‘ra darak, so‘roq, buyruq, undov ohangi bilan ayta olish) ta’minlashga xizmat qiluvchi bilim va kompetensiyalar, asosan, ona tili mashg‘ulotlarida shakllanadi.

Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda nutqda uchraydigan nuqsonlarni aniqlash ham metodik ahamiyatga ega. Ular:

– mahalliy sheva yoki oila ta’siri;
– so‘zlashuv uslubi, “ko‘cha tili”ning ta’siri;
– maktabda o‘quvchilarning og‘zaki nutqiga e’tibor bermaslik;
– nutq organlarida g‘ayritabiiy kamchiliklarning bo‘lishi: “r”ni aytolmaslik, tili chuchuklik kabi.

Maktab o‘qituvchisining muhim vazifasi ana shu nuqsonlarni o‘z vaqtida anglash, bartaraf etish, oldini olish sanaladi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini quyidagi yo‘nalishlarda olib borish maqsadga muvofiq [4]:

1. O‘quvchilarning amaldagi alifbo asosida mukammal savodini chiqarish.
2. Adabiy til me’yorlarini egallab borishini ta’minlash.
3. O‘quvchilar nutqini lug‘at boyligi va grammatik qurilish bilan boyitish.
4. Nutq faoliyatining turli xil ko‘rinishlarini o‘rgatish.
5. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqiy savodxonligiga erishish.
6. Lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishda nutqiy kompetensiyalar takomiliga alohida yondashish;
7. Har bir mashg‘ulotni ilg‘or pedagoik texnologiya talabiga tayangan holda tashkil qilish.
8. O‘quvchilar faolligini, hamkorligini, individualligini qamrab olgan didaktik o‘yinlardan tizimli foydalanish.

Ta’lim jarayonida nutq turlarini shakllantirish va rivojlantirish alohida- alohida tarzda amalga oshiriladi. Vaholanki, ularni birgalikda rivojlantirishga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Bu narsa og‘zaki va yozma nutqqa oid topshiriqlarning almashib turishidagi intensivlik darajasi baland bo‘lishini taqozo etadi. O‘quvchilar uchun o‘z fikrlarining nutqiy ifodasiga, nutqiy ifodaning esa puxta fikrga tayanishiga undaydigan sharoit yaratilishi kerak. Mutaxassislar buning eng ratsional yo‘li sifatida ularni yaxlit tarzda rivojlantirishni tavsiya etishadi. Og‘zaki va yozma nutqni o‘zlashtirish ko‘nikmasi tinglash va o‘qishga tayanadi. Shu asosda o‘quvchilarda og‘zaki va yozma mulohazalarni bildira olish kompetensiyalari shakllanadi. Uning amaliyotdagi ko‘rinishi so‘zlash va yozishda namoyon bo‘ladi. Albatta, har bitta nutq turida uning o‘zigagina xos bo‘lgan kompetensiyalar (og‘zaki: so‘zlashuvda so‘z va gaplar talaffuzi, intonatsiyasiga rioya qilish, matnni gapirib berish, ravon so‘zlash; yozma: mashqlar ustida ishlash, xabar yoki rasm asosida matn yaratish, ish qog‘ozlarini yozish, tavsif berish, imloviy-uslubiy savodxonlik) bilan birgalikda nutqiy faoliyatning barcha turlari uchun umumiy bo‘lgan kompetensiyalar (adabiy til me’yorlariga rioya qilish, savodxonlik) ham shakllanib, takkomillashib boradi [5].

Boshlang‘ich ta’lim Ona tili darslarida tilning barcha bo‘limlari ham nutqiy layoqatni rivojlantirishda keng imkoniyatga ega.

Masalan: “Fonetika”ni o‘rganishda so‘zdagi ma’lum bir tovushni o‘zgartirib, tovushdosh, so‘zlar hosil qilish, shuningdek, o‘zakdosh, qo‘shimchadan qofiyadosh, ohangdosh so‘zlar yasash, ularninglug‘aviy ma’nolari hamda ma’no guruhlari ustida ishlash o‘quvchi so‘z boyligini oshiradi, nutqiy malakalarini shakllantiradi.

Nutqiy kompetensiyalarni takomillashtirishdagi eng salmoqdor bo‘lim “Leksikologiya” hisoblanadi. Bu bo‘limni o‘rganishda so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosini farqlash, ko‘pma’noli, ma’nodosh,

uyadosh, shakldosh, zid ma’noli, paronim so‘zlar ustida ishlash –o‘quvchi so‘z boyligini oshirish va boyitishga, nutqiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Yoshavlod qalbida o‘z ona tili bilan faxrlanish, unga muhabbat, e’tibor va ehtirom hislarini tarbiyalaydi.

Grammatik tushunchalar: morfologiya (so‘z turkumlari) va sintaksis (so‘z birikmasi, gap qurilishi) bilan bog‘liq dastlabki mavzular, matn ustida ishlash jarayonlari ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini takomillashtirishga sezilarli hissa qo‘shadi. Shuningdek, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda kichik-kichik parchalarni o‘qish, ifodali o‘qish, maznunini o‘zlashtirish, hikoya qildirish, matn tuzish hamda yozma ish turlari: diktant, bayon va insholar ham samarador ahamiyatga ega.

**XULOSA VA MUNOZARA**

Bu jarayonlarning barchasini zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, dikdaktik o‘yinlar asosida tashkil qilish esa ona tili ta’limidan ko‘zlangan maqsadning tugal yechimiga, nutqiy savodxonlikka erishishda muhim amaliy natijador mavqega ega.

**Adabiyotlar ro`yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazi. Ona tili fani bo‘yicha uzluksiz ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari. –T., 2017.
2. B.To‘xliev. O‘quvchilar yozma ishlariga bog‘liq kommunikativ kompetensiyalar haqida. O‘zbek tili o‘qitishning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan anjuman materiallari to‘plami. –T., 2015.
3. Turdiev N.Sh., Asadov Yu.M. va b.Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. 1-qism. –T.: O‘zPFITI, 2015.
4. T.Almatov, Q.Yadgarov, Sh.Almatova. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. – T., 2013.
5. B.To‘xliev, M.Shamsieva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T., 2019.